

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BOTANIKA FANIDAN "YUKSAK O'SIMLIKLER MODULI" NI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MODELII

Sh.X.Saidmuratov

Nizomiy nomidagi TDPU Botanika va ekologiya kafedrasi tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbi maqola o'qitishning metodik tizimi elementlarini muayyan mazmun bilan to'ldirish va xususiy-didaktik tamoyillariga asoslanib, ta'lim jarayonining subyekt-obyekt munosabatlarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, yuksak o'simliklar modulini o'qitishda keys stadi, nostandart testlar, loyihalash kabi metod, vosita va texnologiyalardan to'g'ri foydalangan ravishda o'quv jarayoni va o'quv jarayonidan tashqari vaqtlarda talabalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish uchun qanday imkoniyatlarni ishga solish haqidagi tahlillar maqolada aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: keys stadi, nostandart testlar, loyihalash, metod, vosita, texnologiya, metodik imkoniyat, model.

Kirish. O'qitishning metodik tizimi elementlarini muayyan mazmun bilan to'ldirish o'qitishning umumiy va xususiy-didaktik tamoyillariga asoslanib, ta'lim jarayonining subyekt-obyekt munosabatlaridan amalga oshadi. Ushbu munosabatlarni va ma'lum bir o'quv intizomida o'quv jarayonini amalga oshirishning real sharoitlarni hisobga olgan holda (odatda, masalan, ularga quyidagilarni kiritiladi: a) o'quv fani, predmetni o'rganish uchun soatlar soni; b) o'quvchilarning o'qitish mazmunini idrok etishga tayyorligi; v) o'qituvchi yoki ustozning individual qobiliyatlari va boshq.) o'qitishning metodik tizimining muayyan o'quv fanlari, predmetlari, kurslari o'qitishning metodik tizimi izohlarining ko'plab sonini "keltirib chiqarish" imkonini beradi [1]. Darsda talaba o'qituvchi savoliga javob bersada, lekin ayrim biologik jarayonlarni tushunib tasavvur qilish, hayoti mobaynida duch kelganida bu bilimlardan qay darajada foydalana olish malakalariga ega bo'layotganligi talaba va o'qituvchi uchun ham mavhum bo'lib qoladi. Bunday muammoni hal qilishda sinfdan tashqari ishlar, jumladan, mustaqil ta'limni ahamiyati katta hisoblanadi.

O'qituvchining vazifasi kelajakda talabaning yuqori malakali mutaxassis sifatida eng yaxshi sifatlarini ko'rish va rivojlantirishdir [2].


Muhokama. Botanika o'quv fanini o'qitishda talabalarda umumiy botanik tushunchalarni shakllantirish asosiy o'rinni egallaydi. Pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlashning ishlab chiqilgan modeli asosida ta'lim jarayonini tashkil etish o'qituvchilarda quyidagi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini berdi:

Botanika darslarida talabalarining kasbiy amaliyotda duch kelishlari mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi va qo'llash qobiliyati (1-rasm);

kasbiy faoliyatida duch kelgan muammolarni bartaraf qilish uchun elektron adabiyotlar, internet qidiruv tizimlaridan samarali foydalanish;

botanika o'quv jarayoni davomida virtul laboratoriyalardan keng foydalanish;

yuksak o'simliklar modulini o'qitishda keys stadi, nostandart testlar, loyihalash kabi metod, vosita va texnologiyalardan to'g'ri foydalangan ravishda o'quv jarayoni va o'quv jarayonidan tashqari vaqtlarda talabalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish uchun <https://powo.science.kew.org/>, <https://www.gbif.org/ru/> kabi onlayn platformalardan foydalanish [3,4] (1-rasm).



1-rasm. Botanika fanidan elektron axborot-ta'lim resursining strukturasi


Yuqorida qayd etilgan manbalar axborot-ta'lim resursi asosida mavzularni interfaol metodlardan foydalangan holda hozirgi zamon analiz-sintez asosida taqqoslash, qiyoslash metodlarining an'anaviy (odat bo'lib qolgan) prinsiplar bilan solishtirish, kuzatish xususiyati, o'quvchilarning jonli tabiat vositalari bilan asoslanish, laboratoriya mashg'ulotlariga mavzu doirasidan kelib chiqib, muammoli vaziyatlar asosida yechimini topish ko'nikmalari talabalarda paydo bo'ladi.

Shuningdek, ushbu axborot-ta'lim resursi "Botanika" fanini izchillik asosida o'qitish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar olish, fanni o'qitishda nazariy, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari ishlanmalaridan, ko'rgazmali taqdimot slaydlari, video qo'llanmalardan, talabalarni baholashda darajali test va nazorat savolnomalaridan foydalanish bo'yicha metodik imkoniyatlar yaratadi (2-rasm).

| Maqsadlar / Maqsadlar | Usullari |
|---|--|
| Tushunchalarni mustahkamlash va jamoa bilan muhokama qilish | O'ylab ko'ring, juftlashing Qor to'plash Burchak mashqlari |
| Tekshirish va baholash | Juftlikda takrorlash |

| | |
|---|---|
| | O‘zaro sinf usuli Daqiqa qog‘ozi Tekshirish jadvallari Ish varaqlari |
| Tushunchalar va ko‘nikmalarni safarbar qilish | Muammoli dizayn So‘z tarmoqlari |
| Konsepsiyalarni qo‘llash, muammolarni hal qilish va tadqiqotni rejalashtirish | Jigsaw usuli Keys tadqiqoti Muammoli ta’lim Poster sessiyasi |

2-rasm. Botanika fanini o‘qitishda maqsad va usullarning qo‘llanilishi.



fanidan yuksak o‘simliklar modulini o‘qitish metodikasini takomillashtirish” modeli ishlab chiqildi (3-rasm).

3-rasm. “Oliy ta’lim muassasalarida “Botanika” fanidan yuksak o‘simliklar modulini o‘qitish metodikasini takomillashtirish” modeli

Xulosa. Model oliy ta’lim muassasalari pedagogika ta’lim yo‘nalishlari talabalarini botanika fanini o‘qitishda kasbiy faoliyatga tayyorlashning ta’lim texnologiyalari (modulli, muammoli o‘qitish, kichik guruhlarda ishlash, assessment texnologiyasi, grafik organayzer, interfaol metodlar va h.k.) yordamida o‘qitishni tashkil etish, natija (ishlab chiqilgan baholash mezonlariga asosan talabalarni botanika fanidan o‘zlashtirish darajasini aniqlash) orqali fanni o‘qitish amaliyotida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh.A., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korrektsiya. Toshkent, 2018.

2. Ko‘makova D. (2024). Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta’limning ahamiyati. Modern science and research, 3(1), 1–10.

3. <https://powo.science.kew.org/>

4. <https://www.gbif.org/ru/>